

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.28.11.T.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

DADABOYEV QOBILBEK QOSIMJON O‘G‘LI

**BUG‘-GAZ QURILMASI GRADIRNYALARIDAGI AYLANMA
SUV YO‘QOTILISHINI KAMAYTIRISH**

05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Dadaboyev Qobilbek Qosimjon o'g'li Bug'-gaz qurilmasi gradirnyalaridagi aylanma suv yo'qotilishini kamaytirish.....	3
Дадабоев Қобилбек Қосимжон ўғли Снижение потерь циркуляционной воды в градирнях парогазовой установки.....	21
Dadaboyev Qobilbek Qosimjon ogli Reducing the waste of circulating water in the cooling towers of a steam-gas plant.....	41
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works	45

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.28.11.T.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

DADABOYEV QOBILBEK QOSIMJON O‘G‘LI

**BUG‘-GAZ QURILMASI GRADIRNYALARIDAGI AYLANMA
SUV YO‘QOTILISHINI KAMAYTIRISH**

05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3.PhD/T3946 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdttu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yunusov Baxtiyar Xadjakbarovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: Qlichev Shavkat Isakovich
texnika fanlari doktori, professor

Isaxodjayev Xayrulla Sunnatillayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot: "Issiqlik elektr loyiha" AJ

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.28.11.T.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil "19" 05 soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks:(99871) 207-07-37; faks: (99871) 207-14-62; e-mail: tstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Axborot- - resurs markazida tanishish mumkin (102 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-07-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "2" 05 kuni tarqatildi.
(2026 yil "1" 05 dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).



K.R. Allayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
Texnika fanlari doktori, professor,
akademik

N.N. Niyozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
PhD, dotsent

Yo.S. Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global iqlim o'zgarishini, chuchuk suv taqchilligi muammosini hisobga olgan holda sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarda suv bilan ishlovchi zavod-fabrikalarda suv tejovchi qurilmalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu boisdan dunyo olimlari energiya tejash va suv yo'qotilishini kamaytirish masalalariga alohida ahamiyat bermoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda bunday texnologiyalar ustida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan mana shu bug'lanayotgan miqdor sovutilayotgan suvning 2 % ini tashkil qiladi. Aynan shu sababli so'nggi yillarda stansiyalardagi suv yo'qotilishini kamaytirishga qaratilgan qurilmalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun suv tejash usullari ham rivojlanib suv tejash imkonini beruvchi usullar, vositalar va algoritmlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, IESlarining suv sovituvchi minoralaridagi aylanma suv yo'qotilishini kamaytirish uchun olimlar tomonidan turli usullarda izlanishlar olib borilmoqda. Masalan suv tarkibidagi tuzlar va cho'kindilarni tozlash orqali chiqindiga chiqarib yuboriladigan suv miqdorini kamaytirish orqali suvga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, bug'lanib ketayotgan suv miqdorini kamaytirish uchun ham izlanishlar olib borilgan. Shunday bo'lsa-da hali ham sayyoramizda chuchuk suv tanqisligi muammosi hali ham mavjud.¹ Shuning uchun bu sohalardagi yangi ishlanmalar va ixtirolarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida energiya sig'imdorligini 2030 - yilga qadar bir yarim barobarga kamaytirish maqsadida yangi texnologik yechimlarni yaratish va takomillashtirish hamda joriy etishga doir keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha soxalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 %ga oshirish"² bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, suv xo'jaligi obyektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish, suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish kabi masalalarni yechishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2024 yil 7 avgustdagi O'RQ-940-sonli "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-5005-son [qarori](https://lex.uz/docs/-5307918) 2021 yil 24 fevral. <https://lex.uz/docs/-5307918>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022 yil 9 sentyabrdagi PF – 220 – sonli farmoni va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II “Energetika, energo tejamkorlik va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Texnik suv sovutish gradirnyalaridan nafaqat IESlarda balki sanoat, ishlab chiqarish sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Shu sababdan texnik suv sovutish gradirnyalarini takomillashtirish va keng ko‘lamda joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan Rossiya issiqlik muhandisligi instituti, Rossiya suv ta‘minoti ilmiy tadqiqot instituti, Qozog‘iston energetika ilmiy tadqiqot instituti, Rossiya energetika instituti, Toshkent davlat texnika universiteti va boshqalarda amalga oshirilmoqda.

Suv tejoychi qurilmalarni tadqiq etish va yangi ishlanmalarni yaratish kabi masalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar hissa qo‘shganlar, jumladan A.F. Valodin, V.S. Panamarenko, Y.I. Arefiyev, V.B. Andrianov, L.D. Berman, A.G. Laptev, R.I.Nigmatullin va boshqalar.

IESlarida suv yo‘qotilishi va gradirnya samaradorligini oshirish kabi ilmiy muammolarni hal qilishga O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bulardan, N.R. Yusufbekov, J.N. Muhiddinov, S.M. Turabdjano, Q.M. Murtazayev. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida gradirnya samaradorligini oshirish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Sezilarli muvaqqiyatlarga qaramay, gradirnyalarda suv yo‘qotilishi bilan bog‘liq ilmiy muammolar yetarli o‘rganilmagan. Mazkur dissertatsiya ishida gradirnyadagi suv yo‘qotilishini kamaytirish uchun yo‘qotilayotgan suv bug‘ini kondensatslash usuli va algoritimi taklif etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Atom elektr stansiyalari va issiqlik energetikasi” kafedrasining “Sanoat korxonalarida issiqlik energiyasi va yoqilg‘idan foydalanishda samaradorlikni oshirish” mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bug‘-gaz qurilmasi gradirnyalaridagi aylanma suv yo‘qotilishini aylanma suv bug‘ini kondensatslash orqali kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bug‘ gaz qurilmali IESlarda suvni qayta ishlash tizimlari va gradirnya samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlarning holatini ilmiy-texnik tahlil qilish;

IESlardagi kondensatsiyalanish jarayonlarida sovutish agentlaridan foydalanib, qurilmaning tajribaviy namunasini ishlab chiqish;

suv bug'ini kondensatlash qurilmasini geometrik va dinamik parametrlarini matematik modellashtirish;

suv bug'ini kondensatlash qurilmasi bo'yicha tajriba-sinov o'tkazish va texnik iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida bug'-gaz qurilmali IESlarini suv sovutish gradirnyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti suv sovutish gradirnyasida bug'lanayotgan suvni kondensatlash usuli orqali yo'qotilishni kamaytirish, shuningdek uni texnik takomillashtirish va iqlim sharoitlariga moslashtirish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik hisoblashlar uchun Merkelli usuli va tajribada kuzatish, o'lchash, qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

havo ventilyatorli gradirnyalarda suv yo'qotilishini kamaytirish imkonini beruvchi issiqlik almashinuv qurilmasi qovurg'alanish qonuni asosida qovurg'alanish koeffitsiyentining $\psi = 9$ ekanligini inobatga olib takomillashtirilgan;

Merkel-Lyuis tenglamasi asosida havo ventilyatorli gradirnyalarda suv bug'ini kondensatlashning balandlik bo'yicha energiya o'zgarishini ifodalovchi va kondensatsiya oqimini hisobga oluvchi ($\kappa > 0$) kondensatsiyalanish koeffitsiyentini samarali hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

issiqlik almashinuv qurilmasida issiqlik va massa oqimlarining taqsimlanish dinamikasi asosida maksimal kondensat va minimal gidravlik qarshilik yuzasini aniqlashning matematik modeli energiya va entalpiya o'zgarishini hisobga olib takomillashtirilgan;

harorat ta'sirida moddaning agregat holatini o'zgarish qonuni asosida bug'-gaz qurilmasi minimal gidravlik qarshilik talabini hisobga olib suv bug'ini kondensatlanishining samarali rejimi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

suv sovutish quvvati $35\ 000\ m^3/h$ bo'lgan gradirnyada yo'qotilayotgan $600\ m^3/h$ suv bug'ini $16\ ^\circ C$ suvli issiqlik almashinuv qurilmasida kondensatlash usuli orqali $10\ \%$ ga kamaytirish ya'ni soatiga $60\ m^3/h$ suv tejab qolish.

Zamonaviy IESlardagi sovutuvchi minorada texnik suv yo'qotilishini kamaytirishning dasturiy ta'minoti (№ DGU 13044, 16.11.2021 y.) ishlab chiqib tavsiya qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi natijalar yuqori aniqlikdagi o'lchov vositalari yordamida olinganligi, ko'p marta o'lchanganligi, shuningdek, ishlab chiqarishga joriy etish orqali asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati suv sovutish minorasida isrof bo'layotgan suvni kondensatlash orqali kamaytirish va stansiyaning yangi suvga bo'lgan ehtiyojini minimallashtirish jarayonini matematik modellashtirishning yangi yondashuvi taklif etilganligi, shuningdek gradirnyaga o'rnatiladigan bug'ni kondensatlovchi IAQga xizmat ko'rsatish tamoyillari shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati stansiya gradirnyasida mavjud infratuzilmani o'zgartirmasdan stansiya suv yo'qotilish muammosini samarali yechimini qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bug'-gaz qurilmasi gradirnyalaridagi aylanma suv isrofini kamaytiruvchi qurilmani takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

gradirnyadagi aylanma suv isrofini kamaytiruvchi issiqlik almashinuv qurilmasi To'raqo'g'on IES ga joriy qilingan. ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJning 2025 yil 10 oktabrdagi № 02-1711-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, gradirnyadagi aylanma suv yo'qotilishini kamaytirish hisobiga yiliga 525 600 m³ aylanma suvni tejab kutilayotgan iqtisodiy samara 756 864 000 so'm foyda olish imkoniyati yaratilgan;

maksimal kondensat va minimal gidravlik qarshilik yuzasini aniqlovchi matematik model IES gradirnyasiga joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJning 2025 yil 10 oktabrdagi № 02-1711-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suv bug'ini kondensatsiyalash hisobiga 10 % ga suv yo'qotilishini tejash va bu orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta foydali model uchun patent topshirilgan va mohiyatan ekspertiza jarayonida. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarining chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 3 ta chet el ilmiy jurnallarida hamda 1 ta Scopus bazasiga kiruvchi to'plamlarda nashr etilgan, 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati va ishonchliligi yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar, ilmiy ishlar tahlili va muammoni o'rganish, shakllantirish**" nomli birinchi bobida IESlarda suvni sovutish texnologiyasi, sovutish qurilmalarida suyuqlik va gazlarning gidro-aerodinamikasi, issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari, bug' – gaz qurilmali IESlarning gradirnyalarining samaradorligini oshirish bo'yicha qilingan ishlarning holati ko'rib chiqilgan. Respublikamizda suvdan foydalanish statistikasi alohida ko'rib chiqildi. Mavjud texnologiyalarning tahlili shuni ko'rsatadiki (suv tutuvchi,

kondensatlovchi, havo bilan sovituvchi) qurilma va texnologiyalar sezilarli kamchiliklar va cheklovlar (ko‘p energiya talabi, samaradorlikning pastligi, aniq ishlab chiqarish korxonasida sinalmaganligi)ga ega. Shuning uchun ushbu kamchiliklar asosida tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Bug‘-gaz qurilmali IESlari gradirnyasini suv yo‘qotilishini o‘rganish va tahlil qilish”** nomli ikkinchi bobida To‘raqo‘rg‘on IES gradirnyasida suv tozalash tizimi, texnik aylanma suvdan foydalanish, gradirnya tuzilishi ko‘rib chiqilgan va suvni tejashda asosiy mezonlar aniqlangan. To‘raqo‘rg‘on IES suv tozalash tizimi stansiya uchun ikki turdagi suvni tozalab beradi. Birinchisi qozon qurilmasida suv bug‘i hosil qilish uchun ishchi suv; ikkinchisi esa stansiyaning sovutish uchun sovituvchi aylanma suv. Bu ikki turdagi suv vazifasi va tozalik darajasiga ko‘ra bir – biridan farq qiladi. Gradirnyada sovutiladigan suv bu stansiyaning sovituvchi aylanma suvidir. Stansiya kondensatori, moylash tizimi sovutgichlari va suv bilan sovutiladigan barcha qurilmalarni sovitib, issiq haroratni olib gradirnyaga sovutilish uchun uzatiladi. Aynan mana shu stansiya qurilmalarini sovutish jarayonida qurilmalar, quvurlar va suv bilan ishlovchi detallarning ish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi uchun aylanma suv doimiy tozalab, tarkibi nazorat qilinadi. Suv tozalash tizimi: IESlarda texnik iste‘mol suvini tayorlash bir muncha murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Chunki texnik suv tarkibida stansiya qurilmalarini korroziya, erroziyaga uchratuvchi ishqoriy moddalar, tuzlar bo‘lmasligi zarur. Shuning uchun suvni avval tozalab kimyoviy ishlov berib tuzsizlantirib, qayta ishlab, so‘ngra foydalanishga beriladi. Bu ishlar birma ketinlik bilan kimyoviy suv tozalash sexida amalga oshiriladi. Stansiya suv nasosidan kelayotgan 400 sm diametrlik liniyalik suvga klapanidan keyin shu suvga 400 sm diametrlik liniyaga kichik quvur orqali solyanka 30 % va gippoxlorid 12 % qo‘shiladi. Gippoxlorid – suvni dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi.

Suv kolkulatsion zonaga kelib quyiladi (400 diametrli liniyadan) kolkulatsion zona 2 ga bo‘lingan bo‘lib har bir zonaning hajmi 13,5 tonnani tashkil etadi. Kolkulatsion zonaga 40 % temir xlorid qo‘shiladi. Temir xlorid-loyqalarni cho‘ktirish uchun ishlatiladi. Temirxlorid qo‘shilgandan so‘ng suv mikser bilan aralashtiriladi 2 ta zonaning har birida bittadan mikser bor. So‘ng, suv flakulyatsion zonaga kelib quyiladi. Bu zona 4 ga bo‘lingan bo‘lib, har biri 70 tonnadan jami 280 tonnadan iborat. Bu zonalarda jami 4 ta mikser bo‘lib, har bir zonaga bittadan xizmat ko‘rsatadi. Flakulyatsion zonaga 5 % li anionli polielektroid qo‘shiladi. Anionli polielektroid shilimshiq kimyoviy birikma bo‘lib, loyqalarni bir – biriga birlashtirish uchun xizmat qiladi. Anionli polielektroid aralashgan suv mikserlar yordamida yaxshilab aralashtiriladi va borib, suv tindirish zonasiga quyiladi. Flakulyatsion zona bilan tindirish zonasi orasida hammasi 6 mertli beton devor betonning paski qismidan keyin 1,5 metr atrofida ochiq joy bor. Flakulyatsion zonadan kelayotgan suv shu beton to‘siqning pastki qismidagi ochiq joyidan beriladi Agar suv beton to‘siqning tepa qismidan berilsa tindirilmagan holda tindirish zonasi orqali rezervarga quyilib, tindirilmagan suv mexanik bak nasoslariga ketib qolishi mumkin shuning uchun flakulyatsion zonadan kelayotgan suv betonli to‘siqning pastki qismidan beriladi. Tindirish zonasi pastki qismida 60°

pastga qaratilgan laminatlarga suv quyiladi. Laminatning vazifasi suv tezligini kamaytiradi, loy laminat tagida yig'iladi. (loy ushlab qolinib, suv yuqoriga ko'tariladi). Suvning tiniqligini oshiradi. Tindirish zonasining hajmi 560 tonnadan iborat. Tindirish zonasining tagida tozalagich (*чкпунмоп*) loyni tozalab suvlarni nasosga yuboradi. Nasos loyni tortib chiqarib tashlaydi. Tindirish zonasida tindirilgan suv 70 tonnali rezeruvarga quyiladi (rezeruvar tagida joylashgan). Mexanik bak-nasoslari bu rezeruvardan tindirilgan suvni (nasoslar 4 ta bittasi zahirada turadi) mexanik bakka jo'natadi. Mexanik baklar soni 6 ta har bir bak soatiga 150 tonna suvni tozalab loyqa va mayda zarrachalardan xalos etadi. Suv mexanik baklarda tozalanib prombakka quyiladi. Prombakka quyiladigan bu suvlar *tindirilgan suv* deyiladi. IESlarda suv asosiy omillardan biri bo'lib, suv deyarli har bir qurilmaning ishchi jarayonida ishtirok etadi. To'raqo'rg'on IES sida aylanma suvdan barcha IESlardagi kabi stansiya qurilmalarini sovutish va kondensatorda bug'ni kondensatlash uchun foydalaniladi. Kondensator bug' turbinasida ishlab chiqqan bug'ni kondensatlab qayta tizimga bug'latish uchun uzatadi (1-rasm). Shu jarayonda bug'ni haroratini pasaytirish vazifasini aylanma suv bajaradi. Standart 16 °C li suv kondensator trupkalariga uzatilganda turbinadan chiqayotgan foydalanilgan bug' trubkaning ustki yuzasiga uriladi va issiqlik almashinuv jarayoni sodir bo'lib harorati pasayadi va darhol kondensatga aylanadi. Aylanma suv esa harorati ortadi. Isib qolgan aylanma suv sovutilish uchun gradirnyaga yuboriladi. Bug' turbinasining samarali ishlashi uchun moy tizimi muhim texnologik blok hisoblanadi. U turbina valining ishqalanish yuzalarini sovutish, yog' bilan ta'minlash, zarbani yengillashtirish va xavfsiz ishlashni kafolatlaydi. To'raqo'rg'on IESlarda mana shu vazifalarni bajarish davomida moyning harorati ham ko'tariladi va sovutish kerak bo'ladi. Bu vazifani moy sovutgichlar aylanma suv yordamida amalga oshiradi. Dunyo tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ko'rinadiki, texnik suvni sovutish tizimida suv sovutishning har xil uslublar mavjud; ochiq basseynli, purkagichli basseynli va sovutuvchi minorali. Bu uslublar ichida iqtisodiy va ekologik tomondan eng optimal tanlov bu sovutuvchi minorali uslubdir, chunki qolgan uslublardagi kabi katta maydon talab etmaydi va suv sovutish quvvati va miqdori katta, ish unumdorligi yuqori.




1-rasm. Kondensatsion IESda aylanma suv



2-rasm. Suv sovutish gradirnyasi

Shuning uchun, so‘ngi yillarda, dunyo mamlakatlari faqat sovituvchi minorali uslubdan foydalanishmoqda. Ana endi havo parrakli sovituvchi minoraning texnik ko‘rsatkichlarini boshidan ko‘rib chiqamiz. Buni biz yana To‘ra qo‘rg‘on IESda barpo etilgan sovituvchi minora (gradirnya) misolida ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).

Gradirnya blogi ustki qismida aylana ko‘rinishidagi havo so‘ruvchi parrakli tuynuklar mavjud bo‘lib, ular pastdagi issiq havoni yuqoriga tortadi. Bunday tuynuklardan 2 ta 450 MW quvvatli bug‘–gaz qurilmali blok uchun 11 tadan jami 22 ta tuynuk xizmat qiladi.




3-rasm. Qish mavsumida gradirnyada suv yo‘qotilishi

Ushbu natijalarning qiymatlari mavsumiy ko‘rinishi diagramma ko‘rinishida ham taqdim qilinadi. Quyida ushbu diagrammani ko‘rishingiz mumkin unda yoz va qish mavsumidagi stansiyaning suv yo‘qotilishi taqsimoti yangi suvga bo‘lgan ehtiyojini ustun shaklida keltirilgan bo‘lib bir – biriga taqqoslash uchun mos shaklda keltirilgan. Yozgi mavsumda gradirnyaga soatiga $1100 m^3$ yangi suv qo‘shilmoqda. Shundan $400 m^3/h$ tashqariga chiqarib yuborilmoqda, qolgan $700 m^3/h$ esa ventilyatorlar orqali havoga bug‘lanib ketmoqda. Bir sutka davomida bu miqdor $26\,400 m^3$ suv qo‘shilishi, $9600 m^3$ tashqariga chiqarilishi va $16\,800 m^3$ suvning bug‘lanishini tashkil etadi. Ushbu raqamlar yozgi issiq iqlim sharoitida bug‘lanish jarayonlari keskin kuchayishini ko‘rsatadi (3-rasm).

Dissertatsiyaning “**To‘ra qo‘rg‘on IES gradirnyasidagi aylana texnik suv yo‘qotilishini kamaytirish bo‘yicha gidro-aerodinamik, issiqlik va texnologik jarayonlarning matematik modeli**” deb nomlangan uchinchi bobida IES gradirnyasidagi aylana texnik suv yo‘qotilishini kamaytirish bo‘yicha gidro-aerodinamik, issiqlik va texnologik jarayonlarning matematik modellashirishga bag‘ishlangan.

Jarayonni ifodalovchi formulalar asosida kerakli qiymatlar aniqlanib “Maple”

dasturiy ta'minoti yordamida jarayondagi Nu , k , α_1 , α_2 qiymatlari asosida grafiklar yaratildi (4-a, b rasm).



4-rasm. Reynolds soni (a) va issiqlik berish koeffitsiyenti (b) ga tashqi havo haroratining tasiri tajribaviy tadqiqot qiymatlari va nazariy hisob qiymatlari ta'sirini taqqoslash grafigi

Tajriba natijalari va nazariy hisoblar shuni ko'rsatadiki gradirnya havo yo'liga qo'yiladigan IAQ (issiqlik almashinuv qurilmasi) havo va bug' aralashmasi yo'liga ma'lum miqdorda to'sqinlik qiladi. Shuni inobatga olgan holda IAQ yuzasini shunday maqbul o'lchamda olish kerakki havo yo'liga minimal to'sqinlik qilsin va maksimal kondensatsiya jarayoni uchun issiqlik almashsin buni biz ventilyator tepasi va IAQ dan avvalgi muhitdagi bosimolar farqini o'lchash orqali tekshirishimiz mumkin (5-rasm).

1- jadval


Yaratilgan tajriba qurilmasida IAQ o'rnatilmasdan bosimlar farqi

ΔP IAQsiz nazariy (Pa)	0,74	0,72	0,71	0,70	0,69
ΔP IAQsiz tajriba (Pa)	0,756	0,705	0,725	0,725	0,68
t_x (°C)	20	25	30	35	40
Farq, %	1,4 %	2,8%	2,7 %	2,5 %	1,12 %


Kondensatsiya jarayonini yaxshi bo'lishiga yana bir omil bu IAQ quvurlariga beriladigan suv miqdoridir u o'z navbatida ichki issiqlik berish koeffitsiyentiga bog'liqligini quyida ko'rishimiz mumkin (6-rasm). Bundan tashqari quvurdagi suvni yutayotgan issiqlik miqdorini issiqlik uzatish va berish koeffitsiyenti (α ; k) ga ta'sirini quyidagi grafiklarda ko'rishimiz mumkin (7-8 rasm)

IAQ uchun matematik model: minimum havo qarshiligi va maksimal kondensatsiya sharoitida (differensial asos, Runge–Kutta usuli) Gradirnyada suv bug'ini kondensatlashni matematik modellashtirish.


1– bosqich Bug' havo aralashmasi haroratini (t_{mix}) bog'lash.




5 – rasm Yaratilgan tajriba qurilmasida IAQ o‘rnatilgandan so‘ng bosimlar farqi



6 – rasm Yaratilgan tajriba qurilmasida suv sarfini ichki issiqlik berish koefitsiyenti α_2 ga ta’siri



7-rasm IAQdagi suv orqali yutilayotgan issiqlik (q)ni ichki issiqlik berish koefitsiyenti α_2 ga ta’siri



8-rasm IAQdagi suv orqali yutilayotgan issiqlik (q)ni issiqlik uzatish koefitsiyenti (k) ga ta’siri

Kiruvchi oqim shunchaki havo emas, balki malum bir harorat (t_{mix}) va namlikka (d_{mix}) ega aralashmadir. Uning entalpiyasi.

$$h_{mix} = C_{p,h} \cdot t_{mix} \cdot d_{mix} \cdot (r + C_{p\theta} \cdot t_{mix}) \quad (1)$$

Bu yerda t_{mix} – qurilmaga kelayotgan bug‘-havo aralashmasi harorati. Bu ko‘rsatkich IAQ quvurlari uzunligi bo‘ylab issiqlik o‘tishda harakatlantiruvchi kuchini (Δh) belgilaydi (7-8-rasm).

Yangi modifikatsiyalangan Merkel–Lewis Formulasi Biz an’anaviy Merkel formulasiga kondensatsiya oqimini hisobga oluvchi hadni qo‘shamiz. Qurilma uchun yangi formula:

$$\frac{dh}{dx} = \frac{\alpha \cdot \sigma}{G_h \cdot C_{p,h}} [(h_s - h_a) + \kappa \cdot r \cdot (p_{mix} - p_s)] \text{ kJ}/(\text{kg} \cdot \text{m}) \quad (2)$$

Bu yerda: κ – modifikatsiya koefitsiyenti.

Agar $\kappa > 0$ bo‘lsa — bug‘ning kondensatsiyasi hisobga olinadi.

Agar $\kappa = 0$ bo‘lsa — formula an’anaviy Merkel formulasiga aylanadi.

p_{mix} -kiruvchi bug‘-havo aralashmasining parsial bosimi.

p_s -suv plyonkasi yuzasidagi to‘yingan bug‘ bosimi.

Butun modelning bosqichma-bosqich tuzilishi.

1. Differensial qism (uzunlik x bo'yicha).

Quvur uzunligi bo'ylab harorat va namlik o'zgarishi:

$$\frac{dt_s}{dx} = \frac{G_h}{G_s \cdot c_{p,s}} \cdot \frac{dh}{dx} \quad (3)$$

$$\frac{dm_{kond}}{dx} = \kappa \cdot \beta \cdot (\rho_{mix} - \rho_s) \cdot \sigma \quad (4)$$

Optimallashtirish (hosilani nolga tenglash)

Maksimal kondensat va minimal qarshilik nuqtasi uchun funksiya:

$$f(Re, t_{mix}) = \frac{\alpha(Re) \cdot \kappa \cdot (t_{mix} - t_s)}{\Delta P(Re)} \quad (5)$$

Optimal nuqtani topish uchun Re bo'yicha xususiy hosila olinadi.

$$\frac{\partial f}{\partial Re} = 0 \rightarrow Re_{optimal}^* \quad (6)$$

Integral qism (yakuniy yuzani aniqlash).

Jami yuza (F) ushbu integraldan kelib chiqadi:

$$F = G_h \cdot \int_{h_{ichki}}^{h_{tashqi}} \frac{dh}{\frac{\alpha}{c_p} [(h_s - h_a) + \kappa \cdot r \cdot \Delta p]} \quad (7)$$

Minimal qarshilik va maksimal kondensat sharti.

Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi yechim.

$$\left\{ \begin{array}{l} \alpha(Re) = 3,0679 t_s + 0,8807 t_{mix} + 0,0199 Re + 102,5 \\ \Delta P = \xi \cdot \frac{L}{d_h} \cdot \frac{\rho v^2}{2} \\ Q_{kond} = \int_0^L \kappa \cdot r \cdot \Delta p dF = 0,10 \cdot Q_{bug'} \\ \frac{d}{dRe} \left(\frac{\kappa \cdot \alpha}{\Delta P} \right) = 0 \end{array} \right. \quad (8)$$

Yangi formula $h_{eff} = \Delta h_{Merkeli} + \kappa \cdot \psi(t_{mix})$

Qurilmada: t_{mix} yuqori bo'lgani uchun $\kappa \cdot \psi(t_{mix})$ hadi kata qiymat beradi.


$$F = 6905 m^2$$

$$\kappa = \frac{Q_{kond}}{Q_{jami}} \quad (9)$$

$$\int_0^L \kappa \cdot \beta \cdot (p_{mix} - p_s) dx = 0,10 \cdot m_{bug'} \quad (10)$$

Bu qiymat IAQ qurilmasi uchun optimal issiqlik almashinish yuzasi sifatida qabul qilinadi.

Yakuniy natija: Runge – Kutta usulida yechilgan differensial tizim va empirik bog'lanmalar asosida IAQ qurilmasining optimal rejimi aniqlanadi. Modelda aerodinamik qarshilikning kamayishi issiqlik almashinish yuzasini maksimal holatda saqlab, suv bug'ining 10 % qismini kondensatsiya holatiga olib keladi. Bu natija IAQ samaradorligini oshirishning optimal fizik-matematik asosini tashkil etadi (9-rasm).



9 – rasm. Hisoblash algoritimi


Tadqiqotda gradirnya chiqishidagi havo massa-namlik xususiyatlari psixrometrik nuqtalar shaklida aniqlab olindi. IAQ oʻrnatilmasdan oldin chiqayotgan havo 27 °C hamda 95 % nisbiy namlikni tashkil etar edi. Bu holatda havoning bug‘ bosimi juda yuqori bo‘lib, havo atmosfera bilan aralashgandan so‘ng katta miqdorda namlik (bug‘) tashqariga chiqadi (10-rasm).

1-nuqta: IAQsiz gradirnyadan chiqayotgan havo namlik miqdori.

$$t_1 = 30 \text{ } ^\circ\text{C}, \varphi_1 = 95 \text{ } \%, d_1 = 25,77 \text{ g/kg}, h_1 = 96,03 \text{ kJ/kg}$$

2-nuqta: IAQ oʻrnatilgandan keyin gradirnyadan chiqayotgan havo namlik miqdori.

$$t_2 = 25 \text{ } ^\circ\text{C}, \varphi_2 = 82,5 \text{ } \%, d_2 = 16,47 \text{ g/kg}, h_2 = 67,08 \text{ kJ/kg}$$



10-rasm *i-d* diagrammasidagi havo namligining farqlari

Dissertatsiyaning “**Qurilmani amaliy joriy etish va samaradorlik ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida IES gradirnyasiga tavsiya etilayotgan qurilmani joriy etish va ishlatish, energetik va iqtisodiy ko‘rsatkichlari baholangan.

To‘rao‘rg‘on IES gradirnyalarida suv bug‘lanishini kamaytirish uchun innovatsion qurilma ishlab chiqildi. Qurilma texnologik jihatdan gradirnyaning yuqori qismiga o‘rnatilib, atmosfera tomon chiqayotgan nam havodagi bug‘ni kondensatsiyalash orqali uni qayta aylanma suv havzasiga qaytarib beradi. Shu yo‘l bilan suvning tabiiy yo‘qotilishi keskin kamayadi va gradirnya

samaradorligi ortadi (11-12 rasm).

Qurilmani ishlab chiqarish va joriy etish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- qurilma elementlarini loyihalash va tayyorlash;
- montaj va sozlash ishlarini bajarish;
- mavjud gradirnya tizimiga integratsiya qilish;
- sinovdan o'tkazish va ekspluatatsiyaga qabul qilish.

Ushbu jarayon davomida xalqaro tajriba, jumladan AQSh Energetika vazirligi (DOE) va Germaniya IESlarida qo'llangan texnologik yondashuvlar ham o'rganilgan va moslashtirilgan.

To'ra qo'rg'on IES sharoitida tajribaviy tarzda sinovdan o'tkazilgan kondensatsion modul natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilma aylanma suv yo'qotilishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishishga imkon beradi. Hisob-kitoblar asosida aniqlanishicha, mazkur qurilma yordamida yiliga $525\ 600\ m^3$ miqdorda texnik suv tejash imkoniyati mavjud. Bunday ko'rsatkich, ayniqsa, suv resurslari tanqisligi tobora kuchayib borayotgan Farg'ona vodiysi va unga yaqin hududlarda beqiyos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Energetik samaradorlik natijalari


Tajriba jarayonlarida qurilma gradirnya ish rejimiga qo'shilganda, bir qator muhim energetik afzalliklar kuzatildi:

- nasos agregatlarining gidravlik yuklamasi o'rtacha 5–7 % ga qisqardi, bu esa nasoslarning ekspluatatsiya muddatini uzaytiradi va elektr energiyasi sarfini kamaytiradi.


- kondensatorlarda bug' kondensatsiyasi jarayoni yanada barqarorlashdi, natijada kondensatsiya jarayonidagi tebranishlar kamaydi va issiqlik almashinish samaradorligi ortdi.

- gradirnyaning issiqlik almashinish koeffitsiyenti o'rtacha 8–10 % ga oshgani aniqlanib, sovutish tizimining umumiy samaradorligini yuqorilashiga olib keldi.

- stansiya bo'yicha umumiy foydali ish koeffitsiyenti (FIK) 0,5–0,7 % ga yaxshilandi, bu esa IES kabi yirik obyektlar uchun sezilarli ko'rsatkich hisoblanadi.



11-rasm. Tajriba va nazariy hisoblarning adekvatlik grafigi




12-rasm. Tajriba va nazariy hisoblarning adekvatlik grafigi

Iqtisodiy samaradorlik natijalari. Hisob-kitoblarga ko'ra, qurilma qo'llanilishi natijasida yiliga 756,8 million so'm mablag'ni tejash mumkin. Bu tejash quyidagilar hisobiga shakllanadi:

- suv resurslarini tejash;
- elektr energiyasi sarfining kamayishi;
- kimyoviy suv tozalash sexida reagentlar sarfining qisqarishi;
- nasos va boshqa agregatlarning ekspluatatsiya xarajatlari kamayishi.

Shu bilan birga, qurilmani ishlab chiqarish va oʻrnatishga sarflangan kapital mablagʻlar 5 – 7 yil ichida oʻzini toʻliq qoplaydi. Demak, qurilmaning iqtisodiy samaradorligi nafaqat amaliyotda, balki investitsion jihatdan ham oʻz isbotini topadi. Suv yoʻqotilishini qurilma oʻrnatilgan va oʻrnatilmagan holat uchun taqqoslash uchun quyida havo xaroratiga yoʻqotilishning taʼsiri koʻrinishida grafik keltirilgan (13-rasm).



13-rasm. Suv yoʻqotilishining haroratga bogʻliqligi qurilma oʻrnatilishidan oldin va keyin

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan natijalar bilan taqqoslash shuni koʻrsatadiki, Toʻraqoʻrgʻon IESda erishilgan natijalar samaradorlik boʻyicha yuqori darajada. Masalan, Zhu va boshqalar (2020) tomonidan keltirilgan suv kondensatsiyasi hajmi yoki “Frontiers in Water” (2024) jurnalida taqdim etilgan nazariy yondashuvlar Toʻraqoʻrgʻon IESdagi amaliy natijalar darajasiga toʻla mos kelmaydi. Bu esa mahalliy sharoitlarda ishlab chiqilgan texnologiyaning innovatsionligi va yuqori samaradorligini koʻrsatadi.

2-jadval

1 m³ texnik suvni tayyorlash xarajatlari tarkibi

Xarajat tarkibi	Qiymati (soʻm/m³)	Izoh
Suv xoʻjaligiga toʻlov	203	Tabiiy resursdan foydalanganlik uchun soliq
Elektr energiyasi (Nasoslar)	480	Suvni uzatish va aylantirish uchun
Kimyoviy reagentlar	757	Koʻpiklanish, korroziya va tuz choʻkishiga qarshi
Suv tayyorlash tannarxi	1 440	Umumiy xarajat

3-jadval

Loyiha qiymati jadvali

Ko'rsatkich nomi	Miqdori	Birlik narxi	Jami (USD)	Jami (UZS)
Material (Anodlangan alyuminiy)	6905 m ²	25 \$	172,625\$	2,226,8 mlrd
O'rnatish va montaj (10 %)	-	-	17,262\$	222,7 mln
Sozlash va sinov ishlari (5 %)	-	-	8,631\$	111,3 mln
Transport va logistika	-	-	4,315\$	55,7 mln
Umumiy loyiha qiymati	-	-	202,833\$	2,616,5 mlrd

Yillik iqtisodiy samara 756,8 million so'm.

O'zini oqlash muddati: $\frac{2\,616\,500\,000}{756\,800\,000} = 3,4$ yil

4-jadval

Samaradorlik jadvali

Ko'rsatkich	Qurilmasiz gradirnya	Qurilma bilan gradirnya	O'zgarish (%)
Yillik suv yo'qotilishi (m ³)	5 250 000	4 724 400	10
Tejalgan suv hajmi (m ³)	–	525 600	10
Nasos yuklamasi	100 %	93–95 %	5-7
FIK (foydali ish koeffitsiyenti)	38,5 %	39,2 %	0,7
Yillik iqtisodiy samara (so'm)	–	756,8 mln	–

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan kondensatsion modulning qo'llanilishi nafaqat texnik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki ekologik yuklamani kamaytiradi hamda stansiya ish rejimini barqarorlashtiradi. Qurilmaning amaliy tatbiqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 4422, PF – 60 va O'RQ – 940 hujjatlarida belgilangan energetika samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha vazifalarga to'la mos keladi.

XULOSA

“Bug‘gaz qurilmasi gradirnyalarida aylanma suv yoqotilishini kamaytirish” mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Havo ventilyatorli gradirnyalarda suv yo'qotilishini kamaytirish imkonini beruvchi issiqlik almashinuv qurilmasi qovurg'alanish qonuni asosida, qovurg'alanish koeffitsiyentining $\psi = 9$ ekanligini inobatga olib takomillashtirildi. Natijada, issiqlik almashinuv jarayoni jadalligi 25–35 % ga oshishi ta'minlandi.

2. Merkel-Lyuis tenglamasi asosida gradirnyalarda suv bug'ini kondensatlashni balandlik bo'yicha energiya o'zgarishini ifodalovchi va kondensatsiya oqimini hisobga oluvchi ($\kappa > 0$) kondensatsiyalanish koeffitsiyentini samarali hisoblash usuli ishlab chiqildi. Natijada, bug'-havo aralashmasining parametrlari o'zgarishini aniqlovchi nazariy natijalar olindi.

3. Issiqlik almashinuv qurilmasida issiqlik va massa oqimlarining taqsimlanish dinamikasi asosida maksimal kondensat va minimal gidravlik

qarshilik yuzasini aniqlashning matematik modeli energiya va entalpiya o'zgarishini hisobga olib takomillashtirildi. Natijada, 244 Pa gidravlik qarshilik bilan samarali issiqlik almashinuv yuzasi hisoblandi.

4. Harorat ta'sirida moddaning agregat holatini o'zgarish qonuni asosida bug'-gaz qurilmasi minimal gidravlik qarshilik talabini hisobga olib suv bug'ini kondensatlanishining samarali rejimi aniqlandi. Natijada, minimal gidravlik qarshilikda 10 % li kondensatsiya ulushiga erishish imkoniyati yaratildi.

5. Tadqiqot natijalari To'raqo'rg'on IES da joriy qilingan bo'lib, gradirnyaga maxsus issiqlik almashinuv qurilmasini tatbiq etish natijasida suv yo'qotilishini 7–10 % ga kamaytirishga erishildi. Ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi natijasida, 3 oylik monitoring davomida soatiga 60 m³ suv tejash imkoniyati aniqlandi hamda yillik iqtisodiy samaradorlik 756 800 000 (yetti yuz ellik olti million sakkiz yuz ming) so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ДОКТОРА НАУК DSc.03/2025.28.11.Т.02.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ДАДАБОВЕВ ҚОБИЛБЕК ҚОСИМЖОН ЎҒЛИ

**СНИЖЕНИЕ ПОТЕРЬ ЦИРКУЛЯЦИОННОЙ ВОДЫ В
ГРАДИРНЯХ ПАРОГАЗОВОЙ УСТАНОВКИ**

05.05.04 – «Промышленная теплоэнергетика»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.3.PhD/Г3946.

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета www.tdtu.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный
руководитель:

Юнусов Бахтиёр Юнусович
кандидат технических наук, доцент

Официальные
оппоненты:

Кличев Шавкат Исакович
доктор технических наук, профессор

Исаходжаев Хайрулла Суннатиллаевич
доктор философии по техническим
наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

«Теплоэлектропроект» АО

Защита диссертации состоится «15» 05 2026 г. в 10³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.28.11.T.02.01 при Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова. Адрес: 100095, город Ташкент, улица Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-07-37; факс: (99871) 207-14-62; e-mail: tstu_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова (регистрационный номер 48). Адрес: 100095, Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-14-70.

Автореферат диссертации разослан «01» 05 2026 года.
(протокол реестра № «1» от «05» 5 2026 года).



К.Р. Адлаев

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор,
академик

И.Н. Ниёзов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
PhD, доцент

Ё.С. Аббасов

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, с учётом глобального изменения климата и проблемы дефицита пресной воды, возрастает потребность во внедрении водосберегающих устройств на промышленных предприятиях и в других отраслях, а также на заводах и фабриках, использующих воду в технологических процессах. В связи с этим учёные всего мира уделяют особое внимание вопросам энергосбережения и сокращения потерь водных ресурсов. В настоящее время в развитых странах проводятся многочисленные исследования, направленные на разработку и совершенствование подобных технологий. При этом в градирнях в процессе охлаждения циркуляционной воды происходит испарение части очищенной воды в атмосферу. Объём испаряемой воды может достигать около 2 % от общего расхода охлаждаемой воды. В связи с этим в последние годы особое внимание уделяется разработке и внедрению технических решений, направленных на снижение потерь воды на тепловых электростанциях.

В мире активно развиваются методы водосбережения, направленные на рациональное использование водных ресурсов, и проводятся научные исследования, ориентированные на разработку методов, средств и алгоритмов, обеспечивающих снижение водопотребления. В данном направлении многими учёными выполняются исследования с применением различных подходов, в том числе направленные на сокращение потерь оборотной воды в водоохлаждающих башнях тепловых электростанций.

В частности, приоритетными считаются исследования, направленные на снижение потребности в воде за счёт уменьшения объёма воды, сбрасываемой в отходы, путём её очистки от растворённых солей и взвешенных веществ. Кроме того, проводятся исследования, посвящённые снижению количества воды, теряемой в результате испарения. Несмотря на достигнутые результаты, проблема дефицита пресной воды на планете по-прежнему остаётся актуальной.

В нашей республике в целях снижения энергоёмкости отраслей экономики к 2030 году в полтора раза осуществляются широкомасштабные меры по созданию, совершенствованию и внедрению новых технологических решений. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены задачи по «обеспечению бесперебойного снабжения экономики электрической энергией, активному внедрению технологий “зелёной экономики” во все сферы, а также повышению энергоэффективности экономики на 20 %». В реализации данных задач, в частности, важное значение имеет проведение научно-исследовательских работ, направленных на решение таких вопросов, как экономия не менее 7 миллиардов кубических метров воды за счёт эффективного использования водных ресурсов, снижение потребления электрической энергии на объектах водного хозяйства, а также управление объектами водного хозяйства на основе принципов государственно-частного партнёрства.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени

реализации задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», в Законе Республики Узбекистан №ЗРУ-940 от 7 августа 2024 года «Закон об энергии, её рациональном использовании и повышении энергоэффективности», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2023 года №ПП-57 «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий в 2023 году», а также в других нормативных правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан II — «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

Степень изученности проблемы. Технические водоохладительные башни широко применяются не только на тепловых электростанциях, но и в различных отраслях промышленности и производственной сферы. В связи с этим научные исследования, направленные на совершенствование конструкций и повышение эффективности технических водоохладительных башен, а также на их широкое внедрение, проводятся в ведущих научно-исследовательских центрах мира, в том числе в Российском институте теплотехники, Российском научно-исследовательском институте водоснабжения, Казахстанском научно-исследовательском институте энергетики, Российском энергетическом институте, Ташкентском государственном техническом университете и других научных организациях.

Значительный вклад в решение задач, связанных с исследованием водосберегающих устройств, совершенствованием процессов охлаждения и разработкой новых технических решений, внесли известные зарубежные учёные, в том числе А.Ф. Володин, В.С. Пономаренко, Ю.И. Арефьев, В.Б. Андрианов, Л.Д. Берман, А.Г. Лаптев, Р.И. Нигматуллин и другие исследователи.

Научные работы известных учёных Республики Узбекистан посвящены решению актуальных научных задач, связанных со снижением потерь воды на тепловых электростанциях и повышением эффективности функционирования градирен. Существенный вклад в развитие данного научного направления внесли отечественные учёные, в том числе Н.Р. Юсупбеков, Ж.Н. Мухиддинов, С.М. Турабджанов, К.М. Муртазаев. В результате проведённых ими научных исследований были достигнуты значительные результаты в решении задач повышения эффективности работы градирен.

Вместе с тем, несмотря на имеющиеся достижения, научные проблемы, связанные с потерями воды в градирнях, в частности, за счёт испарения, остаются недостаточно изученными и требуют дальнейших исследований. В данной диссертационной работе предложены способ и алгоритм конденсации

теряемого водяного пара, направленные на снижение потерь воды в градирнях.

Связь темы диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Ташкентский государственный технический университет в рамках научного направления кафедры «Атомные электрические станции и тепловая энергетика» по теме «Повышение эффективности использования тепловой энергии и топлива на промышленных предприятиях».

Цель исследования целью диссертационного исследования является сокращение потерь оборотной воды в градирнях современных парогазотурбинных тепловых электростанций за счёт конденсации испаряющегося водяного пара.

Задачи исследования: анализ современного состояния научно-технических работ по системам водоподготовки и повышению эффективности градирен на теплоэлектростанциях с парогазовыми установками;

разработка экспериментального образца установки с использованием охлаждающих агентов в процессах конденсации на теплоэлектростанциях;

математическое моделирование геометрических и динамических параметров установки конденсации водяного пара;

проведение экспериментальных испытаний установки конденсации водяного пара и определение её технико-экономической эффективности.

Объект исследования градирни парогазовых тепловых электростанций.

